

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

70611201 – Raqamli kriminalistika magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALABI

Toshkent — 2024

O‘ZR OTIRIV
Buyruq № 277
2024 il “ 1 ” avgust

ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil « 1 » avgust dagi 277— sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

t/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar	10
	Kelishuv varag‘i	11

1. Umumiy tavsifi

70611201 – Raqamli kriminalistika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik dasturining o'qish davomiyligi 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70611201 – Raqamli kriminalistika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarni ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlari;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar byurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

magistratura mutaxassisliklaridan birini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish, ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot muassasa va tashkilotlarida, markazlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, axborot-kommunikatsion tizimlarida kiberxavfsizlikni ta'minlash, kiberjinoyatchilikga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan raqamli kriminalistik dasturiy vositalarni yaratish, axborot kommunikatsion-texnologiyalari muhandisligi va tashkiliy boshqaruvga oid kompleks masalalarni yechishni qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida;

Ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida;

axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilotlarida;

raqamli sud ekspertizasini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlarida;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, mudofaa va xavfsizlik organlarida ilmiy tadqiqot, pedagogik, loyiha-texnologik, foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish hamda tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga oid kompleks masalalarni yechish.

ilmiy tadqiqot va pedagogik jarayonlar.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyat;
- eksplutatsiya faoliyati;
- eksperimental – tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy – boshqaruv faoliyati;
 - axborot-tahliliy;
 - ishlab chiqarish – boshqaruv faoliyati.

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70611201 – Raqamli kriminalistika mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etishi;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, olib borilayotgan tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, bibliografiyalarni tuzishi;

ilmiy adabiyotlardan va Internet tarmog'idan eng yangi ilmiy, axborot texnologiyasiga, xususan, kiberxavfsizlik, raqamli ekspertizalar o'tkazishga oid ma'lumotlarni maqsadli qidirishi va topishi;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazishda faol ishtirok etishi;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, qo'yilgan ilmiy muammolar va topshiriqlar yechimining konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqishi;

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;

axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida texnik va dasturiy ta'minotlar ishlab chiqarishdagi mavjud dolzarb amaliy masalalarni yechishda yangi texnologiyalarni qo'llay olishi;

o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlarni tadqiq qilish va ishlab chiqishi;

ilmiy hujjatlar va hisobotlarni ishlab chiqishi;

ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlashi;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritishi;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan hamda o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib mashg'ulotlar o'tkazishi;

onlayn ta'lim, masofaviy ta'lim va mobil ta'lim texnologiyalari va uning o'quv-metodik majmuasi, vositalarini o'zlashtirishi;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borishi.

Eksplutatsiya faoliyatida:

o'rnatilgan talablarni hisobga olgan holda kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi tizimlarning komponentlarini o'rnatish, sozlash, ishlatish va texnik xizmat ko'rsatishi;

kiberxavfsizlik talablariga muvofiq binolar, uskunalar, tizimlar, dasturlar va algoritmlarni sertifikatlashtirishda ishtirok etishi;

obyektning kiberxavfsizlik qismtizimlarini boshqarishi;

axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar bo'yicha raqamli ekspertiza imkoniyatlaridan foydalanishi;

Eksperimental – tadqiqot faoliyatida:

ilmiy mavzular bo'yicha ilmiy va texnik ma'lumotlarni, mahallik va xorijiy tajribalarni to'plashi va o'rganishi;

berilgan usul bo'yicha tajribalar o'tkazish, natijalarni qayta ishlash va tahlil qilishi;

standart dasturiy vositalar yordamida hisoblash tajribalarini o'tkazishi.

Tashkiliy – boshqaruv faoliyatida:

muhofaza qilinadigan obyektning axborot xavfsizligini tashkiliy-huquqiy ta'minlashni bilishi;

axborotni himoya qilish talablarini inobatga olgan holda ijrochilarning kichik guruhlarini ishini tashkil etishni bilishi;

kiberxavfsizlikni ta'minlash va uni boshqarish tizimlarini takomillashtirish usullarini bilishi;

axborotni himoya qilish samaradorligini oshirish, davlat va boshqa turdagi sirlarni saqlash sohasidagi boshqa muassasa, tashkilot va korxonalarining tajribasini o'rganish va umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar bo'yicha raqamli ekspertiza jarayonlarini olib borish va uni samarali tashkil etishni bilishi;

obyektning axborot xavfsizligi siyosatini amalga oshirish samaradorligini monitoring qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

loyihalar samaradorligini baholash;
axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

Ishlab chiqarish - boshqaruv faoliyatida:

axborot tizimi himoyasi uchun mos kriptografik algoritmlarni tanlash;
mavjud kriptografik himoya vositalaridan oqilona foydalanib, belgilangan vazifani bajarish va yuqori samaradorlikka erishishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish;

soha-korxonalarida talab etiluvchi axborotni himoyalashning kriptografik vositalarini tadqiq etish;

boshqarish sohasida axborot-kommunikatsiya tarmoqlarida himoya tizimini boshqara bilish;

axborot xavfsizligi sohasida bo'lishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan bashorat qilgan holda, ularga qarshi kriptografik himoya vositalarini qo'llashni tadqiq etish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, kiberxavfsizlik muammolari va jarayonlarini mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;

o'z faoliyatida meyoriy – huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;

Internet tarmog'idan axborotni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullarini bilishi va vositalaridan foydalana olishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, kiber hujum va tahdidlarini anglash, kiberxavfsizlikning asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;

tabiat, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish.

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishi;

ta'lim, ilmiy-texnikaviy ijodiy faoliyati sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

dasturlash tillari va tizimlaridan, professional, tadqiqot va amaliy muammolarni hal qilishda foydalana olishi;

mustaqil ravishda kibertahdid va kiberhujumlar senariysini anglab olish va unga qarshi kurashish senariysini shakllantira olishi;

kiberxavfsizlik, xususan raqamli kriminalistika masalalari bo'yicha ilmiy va texnik ma'lumotlarni, meyoriy, huquqiy va uslubiy materiallarni, mahalliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va umumlashtirish malakasiga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar bo'yicha raqamli ekspertiza imkoniyatlaridan keng foydalanish bo'yicha nazariy va amaliy eksperimental tadqiqot ishlarida qatnashish, tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy hisobotlar, sharhlar yozish malakasiga ega bo'lish;

sodir etilgan huquqbuzarliklarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda o'z vaqtida aniqlash va qisqa muddatlarda fosh etish, ashyoviy dalillarning kriminalistik tadqiqotlarini yanada takomillashtirishda ishtirok eta olishi;

axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar mexanizmlarini tahlil qilish va ekspert-xulosalar ishlab chiqishda qatnashishi;

loyiha va texnik hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etishi;

raqamli jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha o'tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida dalillarni to'plashda zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, xususan raqamli kriminalistik ilmiy-tadqiq usul va vositalarni qo'llash amaliyotiga ega bo'lishi;

kiberxavfsizlikni ta'minlash, xususan axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklar oldini olish va unga qarshi himoyani amalga oshirish uchun loyihalar yechimlarini ishlab chiqish va tahlil qila olishi;

kiberxavfsizlik, raqamli kriminalistika (ekspertiza) vositalariga oid ishlarni tartibga soluvchi meyoriy, huquqiy va uslubiy materiallarni ishlab chiqishi;

kiberxavfsizlik, raqamli kriminalistika usullari yordamida axborot tizimlarining himoya samaradorligini, xavfsizligini baholash bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot - umumkasbiy va mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ishlab chiqarish hamda ilmiy tadqiqot jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Mutaxassislik bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogini tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	O'quv yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1200	40	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AIA1104	Axborotlarni izlash va ajratib olish	120	4	1
1.03	ILB1204	Innovatsiya va loyihalarni boshqarish	120	4	2
1.04	ALT1204	Algoritmnlarni loyihalashtirish va tahlil qilish	120	4	2
1.05	MFO1304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
1.06	MOK1206	Mobil kriminalistika	180	6	2
1.07	ATQ1306	Axborot tashuvchi qurilmalar kriminalistikasi	180	6	3
1.08	IPI1108	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1, 2, 3
2.00		Tanlov fanlari	480	16	1,3
		Jami:	1680	56	1-3
	Kvalifikatsiya	Ekspert-kriminalist, pedagog-tadqiqotchi.			
	ILA1412	Ilmiy amaliyot	360	12	4
	MDH1152	Magistrlik dissertasiyasini tayorlash	1560	52	1-4
		Jami:	1920	64	1-4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistrning asosiy o'quv reja va fan dasturi, kiberxavfsizlik, kibertahdid, kiberjinoyat, raqamli kriminalistika, raqamli ekspertiza, raqamli dalil, magistratura, konsalting, loyiha-qidiruv, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, yuklama, yuklama hajmi, ilmiy faoliyat, raqamli kriminalistika, raqamli dalil, raqamli sud eksperti, ekspert xulosasi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti

Rektor  B. Maxkamov

2024-yil « 14 » iyun



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
va aloqa harbiy instituti

Direktor  M. Botabayev

M.O.

2024-yil « 1 » avgust



«Kiberxavfsizlik markazi» DUK

Boshliq  B. Raximov

M.O.

2024-yil « 14 » iyun



«UNICON.UZ» – Fan-texnika va
marketing tadqiqotlari markazi MCHJ

Direktor  O. Mirzayev

M.O.

2024-yil « 13 » iyun



Direktor  M. Maxmudov

M.O.

2024-yil « 13 » iyun

